

YANGI “TA'LIM TO'G'RISIDA”GI QONUNNING IMKONYATLARI TO'G'RISIDA

Tirkashev Nodir Ilxomovich

O'z-FinPI Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada yangi “Ta’lim to’g’risida”gi qonun haqida, uning imkonyatlari to’g’risida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: dual, Eksternat, Inklyuziv, sirtqi, liberallashuvi, mexanizmlar, tasnifi.

О возможностях нового Закона об образовании

Аннотация: В статье рассматривается новый закон Об образовании и его возможности.

Ключевые слова: двойственный, внешний, инклюзивный, внешний, либерализация, механизмы, классификация.

Bizga ma'lumki O'zbekiston m ustaqillika erishgandan so'ng ishtimoiy hayotning barcha jabxasida yangilanish, o'zgarish, rivojlanishlar sodir bo'ldi. Jumladan ta'lim sohasida ham o'zgarishlar kuzatildi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi uzluksiz o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonida bo'lib, so'nggi yillarda ta'lim to'g'risidagi qonunlarni yangilashga e'tibor qaratilgan. Eski ta'lim to'g'risidagi qonun (1997-yil) va yangi ta'lim to'g'risidagi qonun (2020-yil) o'rtasida bir qator sezilarli farqlar mavjud. Ushbu farqlar nafaqat qonunlarning tuzilishi va mazmunida, balki ta'lim tizimini boshqarish, sifatni nazorat qilish va ta'lim shakllari bo'yicha ham kengaytirilgan yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ushbu kengaytirilgan shakllar ta'limni yanada universal va keng doiradagi ehtiyojlarni qondiruvchi qiladi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish va zamon talablariga moslashtirish maqsadida yangi ta'lim to'g'risidagi qonun qabul qilindi.

Asosiy qism: Ushbu yangi qonun, o'zining kengaytirilgan tasnifi, yangi mexanizmlar, va takomillashgan tartiblari bilan eski qonundan sezilarli farq qiladi. Iqtisodning liberallashuvi turli ijtimoiy qiyinchiliklarni – ilmsizlar sonining ortishiga sabab bo'lsa ¹, ushbu yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risida”gi qonunda ilmsizlika qarshi kurashadi. Quyida bu farqlarni tahlil qilamiz.

1. Ta'lim olish shakllarining kengaytirilishi:

Eski qonunda ta'lim shakllarining tasnifi cheklangan edi, va ko'p hollarda asosiy shakllar (kunduzgi va sirtqi ta'lim) ko'rsatilgan edi.

Yangi qonunda ta'lim shakllari ancha kengaytirilgan. Endi quyidagi shakllar o'z

¹ M.Q.Raxmonova Ijtimoiy pedagogika. – T.:Malik print co, 2022.– 65 b.

ichiga olingan: Ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim; Dual ta'lim: nazariy va amaliy ta'limning kombinatsiyasi; Inklyuziv ta'lim, ya'ni jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslar uchun ta'lim; Eksternat ta'lim, ya'ni o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirish; Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish; Mudofaa va xavfsizlik sohasida kadrlar tayyorlash. Bu kengaytirilgan tasnif ta'limning turli qatlamlarini hisobga olish va har xil ehtiyojlarga javob berish uchun yo'l ochadi.

2. Ta'lim tashkilotlari va ularning vakolatlari²:

Eski qonunda ta'lim tashkilotlari faqat umumiy shakllarda belgilangan va ularning vakolatlari haqida aniqroq tavsif berilmagan edi.

Yangi qonunda esa ta'lim tashkilotlarining tashkil etilishi, qayta tashkil etilishi, va tugatilishi ustida batafsil to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari, ta'lim sifatini nazorat qilish, tashkilotlar vakolatlari va ustavga bo'lgan talablar yanada aniqroq belgilanadi.

3. Ta'lim jarayonining ishtirokchilarining huquqiy maqomi:

Eski qonunda ta'lim jarayonidagi ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari umumiy tarzda ta'riflangan edi.

Yangi qonunda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari (ta'lim tashkilotlari, pedagogik xodimlar, ta'lim oluvchilar, ota-onalar)ning huquqiy maqomi aniqroq belgilanadi. Bu ishtirokchilarning huquqlarini va kafolatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

4. Davlat ta'lim standartlari va talablari:

Eski qonunda ta'limning sifatini nazorat qilish va davlat standartlariga rioya qilishga oid umumiy qoidalar mavjud edi.

Yangi qonunda ta'lim jarayonini nazorat qilish va eksperimental faoliyatlar bo'yicha aniqroq tartiblar, shu jumladan o'quv rejalari va dasturlarining joriy etilishi, ta'limga oid yangi talablar kiritilgan. Bu o'qishga qabul qilish mexanizmi, jumladan maqsadli qabul qilish jarayonini tartibga solishni o'z ichiga oladi.

5. Davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish:

Eski qonunda davlat ta'lim tizimini nazorat qilishda asosiy mexanizmlar mavjud bo'lsa-da, ular zamon talablariga javob bermasdi.

Yangi qonunda ta'lim tizimining yanada qat'iy nazorat qilinishi ta'minlangan. Masalan: Nodavlat ta'lim tashkilotlarining litsenziyalanishi, attestatsiyadan o'tkazilishi va akkreditatsiyasi uchun yanada aniqroq tartiblar belgilangan. Ta'lim inspeksiyasining vakolatlari kengaytirilgan, ularning ta'lim jarayonini nazorat qilish, monitoring qilish, va ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash bo'yicha faoliyati aniq belgilangan. Nodavlat ta'lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash – litsenziyalar Ta'lim inspeksiyasi tomonidan cheklanmagan muddatga, har bir ta'lim turi uchun alohida

² O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 – sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Talim to'g'risida”gi qonuni

beriladi; ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish – Ta'lim inspeksiyasi tomonidan 5 yil muddatga amalga oshiriladi. Bunda nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya olingan kundan e'tiboran 5 yil davomida akkreditatsiyadan o'tgan deb hisoblanadi, bu muddat tugagach, ushbu attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkaziladi. Davlat akkreditatsiyasidan o'tgan tashkilotlar maxsus reyestrda kiritiladi, bu haqdagi ma'lumotlar Ta'lim inspeksiyasining saytiga joylashtiriladi; Xorijiy davlatda ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning tan olinishi va apostil qo'yish tartibi ham aniq belgilanadi.

6. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga e'tibor:

Eski qonunda nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyati faqat cheklangan tarzda tartibga solingan edi.

Yangi qonunda esa nodavlat ta'lim tashkilotlarining litsenziyalanishi va akkreditatsiyasi uchun alohida qoidalar, shuningdek, ularning ta'lim sifatini nazorat qilish va monitoringini amalga oshirish bo'yicha batafsil tartiblar belgilangan.

Dastlabki Ta'lim to'g'risidagi qonun 02.07.1992- yilda qabul qilinib, unda ta'lim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan biridir deyilgan. Ushbu ta'lim to'g'risidagi qonun 3-moddasida. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari deb nomlanib unda, ta'lim va tarbiyaning insonparvarligi hamda demokratik tamoyillarga tayanishi to'g'risida fikr bildirilgan. 36-moddasida esa Jismoniy yoki ruhiy jihatdan rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan, shuningdek uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarga ta'lim berish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun maxsus ta'lim muassasalari barpo etiladi va ish olib boradi. Bunday ta'lim muassasalariga bolalar va o'smirlarni yo'llash hamda ularni bu muassasalardan chiqarib yuborish bolaning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar fikri hisobga olingan holda ruhiyat, tibbiyot va pedagogika mutaxassislaridan iborat komissiyaning xulosasiga asoslanib amalga oshiriladi. Maxsus ta'lim muassasaining tarbiyalanuvchilari qisman yoki to'liq davlat ta'minotida bo'ladi, ular bepul davolanadilar, ovqatlanadilar va ularga yasama ortopediya vositalari, nogironlar aravachalari tekin beriladi. Hamda 37-moddasida Ijtimoiy yordamga va salomatligini tiklashga muhtoj shaxslar uchun o'quv-tarbiya muassasalari Tarbiya va ta'limning alohida shart-sharoitlariga muhtoj bolalar o'smirlar uchun tarbiyaning alohida tartibi joriy qilgan maxsus o'quv muassasalari barpo etiladi va ular tarbiyalanuvchilar ta'lim kasb o'rganishi va ijtimoiy o'zini tiklashini ta'minlaydilar³. Deyilgan. 29.08.1997 yilda qabul qilingan Ta'lim to'g'risidagi qonunda ham nogironligi bor shaxslar uchun quyidagi 23-moddasida. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil

³ O'zbekiston Respublikasi 1992-yildagi qabul qilingan "Talim to'g'risida"gi qonuni.

etiladi. Bolalar va o‘smirlarni ushbu ta’lim muassasalariga yuborish va ulardan chiqarish ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining o‘quvchilari qisman yoki to‘la davlat ta’minotida bo‘ladi. Hamda 24-modda. Ijtimoiy yordamga va tiklanishga muhtoj bo‘lgan shaxslar uchun o‘quv-tarbiya muassasalari alohida sharoitlarda tarbiyalanish va o‘qishga muhtoj bolalar va o‘spirinlar uchun ularning bilim olishi, kasb tayyorgarligi va ijtimoiy tiklanishini ta’minlaydigan ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi ⁴.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Q.Raxmonova Ijtimoiy pedagogika. – T.:Malik print co, 2022. – 65 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 – sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Talim to‘g‘risida”gi qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi 1992-yildagi qabul qilingan “Talim to‘g‘risida”gi qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yildagi qabul qilingan “Talim to‘g‘risida”gi qonuni.

⁴ O‘zbekiston Respublikasining 1997 yildagi qabul qilingan “Talim to‘g‘risida”gi qonuni.